

34
D-94

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
O'QUV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

G. DAVRONOVA

MUSIQA O'QITISH TEKNOLOGIYALARI VA LOYIHALASH

o'quv qo'llanma



Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач

--	--

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI O'LIY VA O'RTA MAXSUS
TALIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

DAVRONOVA GO'ZAL MARDONOVNA

MUSIQA O'QITISH
TEKNOLOGIYALARI
VA LOYTHALASH

Oliy o'quv yurtlarining 5111100-Musiqqa ta'limi
yo'nalishi talabatlari uchun
o'quv qo'llanma

Ciclayev

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
O'LIY VA O'RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Davronova G.M. Musiq o'qitish texnologiyalari va loyihalash. Oliy o'quv yurtlarining 5111100-Musiq ta'limi yo'nalishi uchun o'quv qo'llanma. 2019. - 156 b.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining 5111100-Musiq ta'limi yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, umumiy musiq ta'limi samaradorligini ta'minlashda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar, shuningdek, darsni bugungi zamonaviy musiq o'qitish talablari asosida loyihalashning optimal yo'l va usullari borasida bilimlar berishga yo'naltirilgan.

Shuningdek, o'quv qo'llanmada musiq madaniyati o'qituvchisining musiqiy pedagogik mahoratini shakllantirish, darsni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish muammolari va pedagogik samarati mulqotini tashkil etish, innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitish sifatini oshirish yo'llari, musiqada ijodiy jarayonni tashkil etish muammolari, musiq ta'limining individual-psixologik va yosh xususiyatlari bilan bog'liq jihatlari, shuningdek, darsdan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

O'quv qo'llanmadan oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari, musiq ta'limi yo'nalishi talabalari, amaliyotchi o'qituvchilar, shuningdek, musiq pedagogikasi bilan qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir: **Filologiya fanlari nomzodi U. Rashidova.**

Taqrizchilar: **Samarqand davlat Universiteti pedagogika kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori, N.Sh.Shodiyev.**

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Din pedagogikasi va psixologiyasi" kafedrasi dosenti, pedagogika fanlari nomzodi Z.X. Kasimova

ISBN — 978-9943-5377-6-7

MUNDARIJA

1. BIRINCHI BOB. MUSIQ O'QITISH TEXNOLOGIYALARI VA LOYIHALASH FANINING METODOLOGIK MASALALARI.	4
1.1. Musiq o'qitish texnologiyalari va loyihalash fanining masadi va vazifalari.....	6
1.2. Musiq madaniyati o'qituvchisining musiqiy pedagogik mahorati.....	15
1.3. Musiq madaniyati darslarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish muammolari va darsda mulqotni tashkil etish.....	24
II BOB. MUSIQ TA'LIMIDA INNOVATSIYALAR SAMARADORLIGI.	
2.1. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.....	40
2.2. Musiq o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiyalari.....	53
2.3. Musiqni qabul etish va tashkil etish yo'llari.....	61
III BOB. MUSIQ-IJODIY JARAYON XUSUSIYATLARI.	
3.1. Musiqda ijodiy jarayonni tashkil etish muammolari.....	74
3.2. O'qituvchilar shaxsiyatida musiqiy-psixologik xususiyatlar va balog'at yoshlari o'tiborga olish muammolari.....	81
3.3. Umumiy o'ra ta'lim maktablari darsdan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni tashkil etish.....	87
IV BOB. MUSIQ PEDAGOGIK FAOLİYATDA KASBIY KOMPETENTLIKNI TAKOMILLASHTIRISH.	
4.1. Musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish va diagnostika qilish.....	94
4.2. Pedagogik texnikani egallashning pedagogik va psixologik jihatlari.....	105
4.3. O'qituvchining o'z ustida ishlashi va kasbiy kompetentligi.....	114
Test savollari.....	126
Qo'shimcha.....	143
Adabiyotlar.....	154

Kirish

Umumiy musiqa ta'limi uchun pedagog kadrlar tayyorlash maqbul pedagogik texnologiyalarni musiqa o'quv mashg'ulotlarida izchil qo'llay olish malakalarini shakllantirish muhimdir. Provaydida o'qituvchi-mutaxassislar tayyorlashda natijalar ularning kasbiy va pedagogik jihatdan tayyorligi, balki, yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion o'qitish metodlaridan izchil foydalana olish imkoniyatlariga ega bo'lishi ham muhim o'rin tutadi.

O'qituvchi yuksak musiqiy pedagogik mahoratga ega bo'lmagan pedagogik va axborot texnologiyalari yutuqlarini pedagogik amaliyotda samarali qo'llashi va yuqori pedagogik natijalarga erishishi qiyin. Musiqi ta'limida har bir o'quvchiga o'z badiiy imkoniyatlarini ochib va ijodiy rivojlanishi uchun yanada kengroq shart-sharoitlar yaratish vazifasi ustuvor ahamiyat kasb etayotir. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish o'qituvchiga, uning kasbiy kompetentligi, pedagogik texnologiyalarni qo'llash faoliyatiga, shuningdek, darsni maqbul turdagi loyihalash imkoniyatlariga bog'liqdir.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi¹ning 166-bandida, - "Mehnat bozoridagi ehtiyoj yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash tizimini kengaytirish" alohida ko'rsatib o'tilgan¹.

Davlat dasturiga binoan, o'qituvchining pedagogik, ta'limiy innovatsion va axborot texnologiyalarini samarali qo'llay olishi, kasbiy mahoratini ta'minlaydigan ijtirochilik mahorati, uni shogirdlar tayyorlashdagi pedagogik mahorati, musiqa san'ati va pedagogikasi² ro'y berayotgan texnologik o'zgarishlar, yangiliklarni tahlil eta olish va o'zlashtirish, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, mustaqillik, o'qituvchilar jamoasi va o'quvchilar bilan ijobiy munosabatlarni o'rnatish, keng miqyosli pedagogik talablarga javoban tayyor bo'lish malakalarining mavjud bo'lishi zarurligi namoyon bo'lmoqda.

Shularni nazarda tutgan holda, oliy o'quv yurtlarining musiqiy ta'limi yo'naltirishida o'qitayotgan "Musiqi o'qitish texnologiyalari va loyihalash" kursiga ham qo'yilayotgan pedagogik-psixologik talablarga

qaratilgan. Bugungi kun musiqa pedagogikasining asosiy vazifasi talabalar musiqiy tafakkurini shakllantirish, atrof-olamni estetik nuqtai nazaridan ko'ra olish va unga maqbul ijobiy emosional munosabat bildirish olish malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

O'quv qo'llanmani yaratish jarayonida muallif tomonidan V.P.Bespal'ko (Bespal'ko V.P. Slagayemye pedagogicheskiye tekhnologii. - M., 1989); D.A.Karimova (Karimova D.A. Musiqiy pedagogik mahorat asoslari. - T.: Iqtisod moliya. 2008), «Yuksak bilimni va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash — mamlakatni barqaror taraqqiy yettirish va modernizatsiya qilishning yeng muhim shartlari mavzusunda xalqaro konferensiya materiallari. Toshkent — 2012 16-17 fevral.

1. H. Ziyomuhamedov, M. Tojiyev. Pedagogik texnologiya zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent 2009-yil.

2. I. Ibratmurodov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim amaliyotini oshirish yo'llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDP, 2005).

V.I. Gorovaya (Gorovaya V.I. i dr. Obrazovatelnyye tekhnologii i tekhnologicheskaya kul'tura sovremennogo pedagoga Sovremennyye tekhnologicheskoye tekhnologii. -2008. -№10. -S.35-36); N.A.Neudaxina (Neudaxina N.A. Osnovy pedagogicheskogo masterstva: Ucheb. - metodicheskoye posobie. - Barnaul: AltGTU, 2002. - 152 s.);

Sovremennyye obrazovatelnyye tekhnologii v uchebnom protsesse vuzov: Metodicheskoye posobie / avt. - sost. N.E.Kasatkina, i dr. - Kemerovo: KGTU «KRIKPO», 2011. - 237 s.; R.G.Qodirov (Kadyrov R.G. Aktualnaya pedagogika: Uchebnoye posobie. - T.: Musiqi, 2008);

S.D. Yakusheva (Yakusheva S.D. "Osnovy pedagogicheskogo masterstva" dlya prepodavateley i studentov vuzov i kolledzey. - Uchebnoye posobie. - Orenburg: 2004); shuningdek, L.V.Shkolyar (Muzicheskoye obrazovaniye v shkole: L.V.Shkolyar, V.A.Shkolyar, Ye.D.Kotlyakova i dr. - M.: Izdatelskiy sentr "Akademiya", 2001) va boshqa mualliflar tomonidan yaratilgan o'quv-uslubiy adabiyotlar haqqida o'rganib chiqildi.

Qo'llanmada mavzular va rejalari, tayanch tushunchalar va mavzular yuzasidan savollar aks ettirilgan. Bundan tashqari, qo'llanmada 7 ta chizma, 2 ta nota na'muna, 1 ta rasm, 1 ta jadval aks ettirilgan hamda ular mavzular mazmunini yoritishga yo'naltirilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Xalq so'zi" gazetasi, 2019 yil 11 yanvar soni.

I BOB. MUSIQA O'QITISH TEXNOLOGIYALARI VA LOYIHALASH FANINING METODOLOGIK MASALALARI

1.1. Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash fanining maqsadi va vazifalari.

Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash fani o'qitish amaliyotiغا keyingi yillarda kirib kelgan fanlardan biri bo'lib, musiqa o'qitish jarayonini texnologiyalashtirish, zamonaviy texnologiyalardan dars jarayonida optimal foydalanish orqali ta'lim sifatini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan.

Loyihalash masalasi pedagogikada keyingi bir necha o'n yillikda asosiy va markaziy tushunchalardan biri sifatida o'qitishni yangicha shaklda tashkil etish, ya'ni, loyihalangan dars ishlatmasi orqali hali tajribasi nisbatan oz bo'lgan musiqa o'qituvchilari ham yuqori pedagogik natijalarni qo'lga kiritishi mumkinligi isbotlangan haqiqatdir. Shu munosabat bilan, musiqa o'quv mashg'ulotlarida darsni oldindan loyihalash, darsning har bir elementi, har bir bo'lagini oldindan tasavvur etgan holda ko'zlangan natijaga erishish yo'llarini ko'rsatib berish vazifasi qo'yilgandir. Bu esa, tezkor tarqiqiyot davrida o'quvchilarning musiqiy bilimlarni egallash imkoniyatlarini yanada kengaytirishga olib keladi.

Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash fanining maqsadi amaliy musiqiy faoliyatni o'zlashtirish jarayonida musiqa madaniyatini o'qituvchisining pedagogik faoliyatini izchil o'rganish, musiqa pedagogikasi masalasiga zamonaviy yondashish va uni amaliy oshirishni chuqur va keng tasvirlashdan iboratdir.

Fanning vazifalari - musiqa o'qitishda innovasion pedagogik texnologiyalar ta'limning mazmunini, o'qituvchilarning musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash borasida ko'nikma va malakalarini shakllantirish orqali pedagogik ta'sir ega bo'lish hamda musiqa ta'limida rivojlantiruvchi, ijodiy, o'yinli va interaktiv uslublar haqida ma'lumotlar berishdan iborat. Shuningdek, musiqa ta'limi va tarbiyasohasidagi ilg'or ish tajribalarini umumlashtirish, darsdan tashqari olib boriladigan ommaviy-musiqiy tadbirlarni mustaqil tayyorlash va o'rganishni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisi (bakalavriat talabasi) o'qitish jarayonida quyidagi bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi:

• musiqa ta'limida keng qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni;

• musiqa ta'lim-tarbiyasi rivojlantirish uchun zamonaviy, ilmiy va metodik talhamalarni tayyorlash yo'llarini;

• tarqatqiy etgan xorijiy mamlakatlarda musiqa ta'limi tizimi borasida ma'lumotlarga ega bo'lishni;

• zamonaviy musiqiy pedagogik tamoyillarga tayangan holda musiqa madaniyatini darslarini optimal rejalashtirish va tashkil etishni;

• amaliyotda musiqiy pedagogik texnologiyalar va metodlarni qo'llash usullarini bilishi hamda ularni samarali qo'llash bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi.

Shuningdek, musiqa madaniyatini darslari mazmunidan kelib chiqqan holda, darsdan tashqari mashg'ulotlarda fanning amaliy maqsad va vazifalarini singdirib borishi:

• kasbiy faoliyat bilan bog'liq tegishli o'quv-uslubiy axborotlarni mustaqil tanlash va amaliyotga joriy etib borishi, musiqa darslarining har bir shakllarini amalda qo'llashda innovasion texnologiyalardan samarali foydalanish;

• pedagogik ish faoliyatida umumiy tajribaga, kasbiy maxsus bilimlar, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi;

• har bir amalda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda musiqa o'qitishning zamonaviy metodlari va vositalarini tanlash va o'rnatishga ega bo'lishi zarur.

Shu bilan bog'va, o'quvchilarning bilimi, ijrochilik va ijodkorlik malakalarini baholay olishi;

• musiqa darslarida nazariy mavzularni singdira bilishi va ularni amaliyotda usullar bilan boyitib, amaliy faoliyatda ko'rsata olishi;

• didaktika va musiqa o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi;

• umumiy o'rta ta'lim musiqa ta'limi mazmunini (boshlang'ich va o'rta ta'lim) bilishi;

• musiqa o'qitishning zamonaviy innovasion pedagogik texnologiyalarini bilishi;

• musiqa ta'lim va tarbiya asoslarini bilishi, amalda qo'llay bilishi ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi talab etiladi.

"Pedagogika" atamasi yunonchadan olingan bo'lib, "bola etaklash" ma'nosini anglatadi. Bunda "Buyuk didaktika" asari muallifi Yan Amos Komenskij (1592-1670) davridan boshlab o'qitish, uning jamoaviyligi,